

**Norboyev O'ktam Safarboyevich**

*Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

*Email: [norboyevuktam1982@gmail.com](mailto:norboyevuktam1982@gmail.com)*

*Tel: +998 93 922 87 32*

*ORCID: 0009-0002-6809-1191*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodining G'arbiy Yevropa, Amerika va Kanada adabiyotshunosligida o'rganilish tarixi tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIII asrdan boshlab hozirgi davrgacha bo'lgan davrni qamrab olgan sayyohlar, diplomatlar va sharqshunos olimlarning asarlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada Navoiy merosini xalqaro miqyosda o'rganishning dolzarbligi hamda ingliz, fransuz, nemis va italyan navoiyshunoslarining ilmiy qarashlari qiyosiy jihatdan yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Alisher Navoiy, jahon navoiyshunosligi, G'arbiy Yevropa sharqshunosligi, qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy aloqalar, tarjima, bibliografiya, tasavvuf, "Xamsa", ilmiy tadqiqot.*

**Kirish.** Kuzatish va tahlillar shuni tasdiq etadiki, Navoiy ijodi va faoliyatining G'arbiy Yevropa sharqshunosligi va adabiyotshunosligi o'rganilishi xususida gap ketar ekan, jahon navoiyshunosligining bugungi rivoji ko'plab yevropa mualliflarining bu mavzuni u yoki bu darajada ilmiy tadqiq etgan ishlari bilan chambarchas bog'liqdir.

**Asosiy qism.** XIII-XIV-XVI asrlarda, ya'ni G'arb va Sharq madaniy aloqalari ikkinchi bosqichga kelib, G'arb va Sharq mamlakatlari orasidagi munosabatlarning tobora rasmiy tus ola borishi Turon va Eron zaminga G'arbiy Yevropadan ko'plab sayohatlardan arboblari, savdogar va diplomatlar yuborish, ekspeditsiyalar uyushtirishga ham shart-sharoit yaratib berdi va bu G'arbiy Yevropa rivojlangan mamlakatlar Qirolliklari tomonidan muayyan maqsadlarni ko'zlab yuborilgan vakillarning O'rta Osiyo yerlariga kelishiga keng yo'l ochdi. Ana shu tariqa, XIII-XIV asrlarda Rim papasi tomonidan yuborilgan Plano Karpini (1245-1247 yillar), Fransuz qiroli Lyudovik IX missiyasini boshqargan Andre de Lonjumo (1245-1247-yillar) va Giyom de (1253-1256-yillar), keyinchalik, fransuz sayyohlari Odarik de Sverek (1320-yillar) O'rta Osiyo hamda Eronda bo'lishib, bu o'lkalardagi qadimiy madaniyatni o'rgandilar.

Yana, mazkur masala o'z maqsad va e'tiboriga ko'ra ta'kidlangan mavzuga muayyan darajada dahl qilgan J.Leyden, V.Erskin, A.Davil, S.Davids, R.M.kal'dekot, S.G.O'usley, CH.Re, E.I.Gibb, A.S.Baverna, X.Baverij, G.Talbot, R.A.Nikolson, Puul, L.U.Kin, E.Douson, M.Eduard, F.Gerenard, D.Ross, I.Avetarannian, X.E.Dauglas, N.Koxen kabi ingliz olimlarining ishlari bilan ham uzviy aloqadordir. Qolaversa, jahon navoiyshunosligining bugungi takomilida shoir haqida o'ziga hos ilmiy tadqiqot yaratgan yoxud boshqa mavzular munosabati bilan bo'lsa-da, u haqida bahs ochgan, birinchilardan

bo'lib uning asarlarini nashr ettirgan va dastlab, shoir ijodidan namunalarni (fransuz tiliga tarjima qilib Yevropaga tanitgan B.de Erbelo de Molenvil, S. De Sasi, F.Rem, M.G.Belin, P.D.Kurtayl, E.Bloshe, L.Buva, E.Katremar, Sh.Sheffer, L.Aragon, P.Lugnet, A.Novaryan, A.Basani, E.Faze, N.Oran, V.Kviprone singari farangistonlik sharqshunos, adib va adabiyotshunoslarning faoliyati ham salmoqli ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jahon navoiyshunosligining qaror topishida chex olim va ijodkorlari B.Beckha, N.Zimova-Garchitsova, E.Knoblox, H.Duda, YA.Ripka, venger tadqiqotchilari va tarjimonlari H.Vamberi, E.Brodskaya, I.Nemet, Q.Bexer bolgar, polyak, mutarjimlari S.Stanchev va I.Mileev, V.Slabodnik, K.Yavorskiy, Olteanu va V.Marian, shoirning italyan va ispan muxlislari X.Armeno, R.Zippoli, A.Bombachi, R.Devereukslarning ilmiy-adabiy faoliyatlari muhim bir bo'g'inni tashkil etadi. Bundan tashqari, mazkur yo'nalishda, xususan, Navoiyning G'arbiy Yevropada, shu orqali dunyoning boshqa mamlakatlarida ma'lum va mashhur bo'lishida G'arbdagi osiyolik, xususan, turkistonlik olimlarning Yevropa tillarida yaratilgan asarlari ham ulkan ahamiyat kasb etdi. Bular A.Muxiddin, N.Ulloh, T.Shokir, I.X.Mamduh, B.Hayit, S.Arslon, T.Ganji, M.A.Sinsor, X.Tursun, Azimzoda, Sami – bey va boshqalardir. Bulardan tashqari, amerikalik, kanadalik va argentinalik E.Olvors, I.Sirtautas, E.Brenbaum, A.Prosik, J.Ueller, X.Lemb, K.Kennadi, P.Orsetti va shu kabi adib tadqiqotchilar ham jahon navoiyshunosligi jug'rofiyasining kengayishiga muayyan ulush qo'shdilar.

Sanab o'tilgan bu ko'p sonli mualliflarning ishlarga baho berish, nihoyatda ko'lami keng bu ishlarni ilmiy-tanqidiy asnoda o'rganish qiyosiy adabiyotshunoslikning ko'pdan beri dolzarflik kashf etib kelayotgan va ayni paytda Sharq va G'arb adabiy aloqalari diapazonida maxsus tadqiq etishga muhtoj bo'lgan masalalaridan sanaladi. Negaki, bunday tadqiqotlarning yuzaga kelishi Navoiyning ilm va badiiyatdagi jahoniy mavqeini belgilashda ko'maklashgan bo'lur edi.

Demak, Navoiy ijodi va faoliyatining G'arb adabiyotshunosligida o'rganilishi borasida G'arbiy Yevropaning 130 dan ziyod olim va adiblar, tarjimon va noshirlar, sayyoh va kutubxonalar mutassadilari baholi qudrat ishtirok etganlar.

Biroq, shu qadar keng miqyosli ishlar amalga oshirilganiga qaramasdan, katta navoiyshunoslikda bu soha tadqiqatga oid yaratilgan ishlarning mundarijasini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, mazkur mavzu hamon ham o'z tadqiqotchilarini kutib turgani ma'lum bo'ladi. To'g'ri, bu mavzuga (ya'ni Navoiy va G'arb masalasiga) Rus sharqshunoslari M.Nikitskiy, V.V.Bortold, A.A.Semenov, E.E.Bertelslarning ishlarida qisman munosabat bildirilgan. Ammo ular bu mavzuni maxsus obekt tarzida emas, balki faqat tarixiy, xronologik asnoda o'rganib, dalillar asl mohiyatga qiyosan tahlil etilmasdan, turli munosabatlarga ko'ra, u yoki bu ma'noda ilmiy bahsga kiritganlar.

Mojor sharqshunosi H.Vamberi ham o'zining "Chig'atoy tili darsligi" kitobida Navoiyning G'arbiy Yevropada o'rganilishi xususida to'xtalib, unda faqat M.Belinishlarini tilga olib o'tadi, biroq uning ishlariga hech qanday tanqidiy munosabat bildirmaydi. G'arbiy Yevropada Navoiy haqida xolis ilmiy tadqiqot yaratganlardan biri olmon akademigi A.Kurella bo'lib, uning "Buyuk shoirning qayta kashf etilishi" degan

tadqiqotida shoir ijodining g'arblik tadqiqotchilari sifatida M.Belen satrlararo eslatib o'tgan, xolos.

**Xulosa.** Keltirilgan qaydlardan ma'lum bo'ladiki, Navoiy hayoti va ijodining G'arbiy Yevropada o'rganilishi mavzusini atroflicha, yaxlit monografik asnoda ilmiy tahlil qilib berish qiyosiy adabiyotshunos fanining galdagi muhim va dolzarb masalalaridan biridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vambery, Hermann. Cagataische Sprachstudien (Chig'atoy tili darsligi). – Leipzig, 1867.
2. Belin, François-Alphonse. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir-Névâï. – Paris: Journal Asiatique, 1861.
3. Bertels E.E. Navoi i Djami. – Moskva: Nauka, 1965.
4. Allworth, Edward. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990.
5. Gibb, Elias John Wilkinson. A History of Ottoman Poetry. – London: Luzac & Co., 1900.
6. Rieu, Charles. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. – London, 1888.
7. Bombaci, Alessio. Histoire de la littérature turque. – Paris: Klincksieck, 1968.
8. Pavet de Courteille, Abel. Dictionnaire turk-oriental (Chig'atoy tili lug'ati). – Paris: l'Imprimerie Impériale, 1870.
9. Kurella, Alfred. Die Wiederentdeckung eines großen Dichters (Buyuk shoirning qayta kashf etilishi). – Berlin, 1948.
10. Hayit, Baymirza. Turkestan im XX. Jahrhundert. – Darmstadt: Leske, 1956.
11. Bartold V.V. Mir-Ali-Shir i politicheskaya jizn ego vremeni. – Leningrad: Izd-vo AN SSSR, 1928.
12. Suleymanov H.S. Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi. – Toshkent: Fan, 1970.